

ERGASH JUMANBULBUL O'G'LINING "QUNDUZ BILAN YULDUZ" DOSTONIDA QO'LLANILGAN DIALEKTAL BIRLIKLAR

Jurabek Xolmirzayev

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti tadqiqotchisi**

E-mail: bobotoyev91@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8386287>

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Qunduz bilan Yulduz" dostoni matnida qo'llanilgan dialektal birliklarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xalq shevalari, dialektizmlar, ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam, til taraqqiyoti.

O'zbek xalq sheva va dialektlari o'zbek adabiy tili bilan ham diaxronik, ham sinxronik planda juda uzviy bog'liqdir. Bularning har ikkalasi ham o'zbek milliy tilining tarmoqlaridir. Shunday bo'lgach, adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat masalasi o'zbek tilshunosligida ham hamisha dolzarb sanaladi. Adabiy tilimizning boyishida, silliqlashishida, rivojlanishida o'zbek sheva va dialektlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi [1, 43].

Adabiy tilimizning rivoji faqat atamalgagina bog'liq emas. Odatdagi so'z boyligimiz ham juda muhim. Tilimizning boyib borishi uchun jiddiy manbalardan biri xalq tili - shevalardir. Xalq tilida adabiy tilda bo'lmagan ko'plab so'z va iboralar mavjud. Ularning adabiy tilga o'tishida so'z san'atkorlarining xizmatlari beqiyos. O'zbekistonimiz ulkan mamlakat, unda turkiy tilning uch buyuk tarmog'i, ya'ni qorluq, qipchoq va o'g'uz shevalari vakillari yashaydilar. O'zbekistonning bir hududida dehqonchilik, hunarmandchilik, boshqasida chorvachilik, yana boshqasida baliqchilik kabi sohalar yaxshi rivojlangan. Bu sohalar o'g'uz adabiy tilda hozircha yo'q bo'lgan so'zlarni ana shu hududlardan izlagan ma'qul [3, 77].

So'zsiz, ana shunday boy manbalardan biri xalq og'zaki ijodi namunalari. Aytish kerakki, folklor matnlari badiiy va mumtoz matnlar poetikasidan muayyan darajada farqlanadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi asarlarining muhim bir janri hisoblangan xalq dostonlari tilida umumxalq nutqi birliklari va so'zlashuv nutqi elementlaridan erkin foydalaniladi. Bunda doston ijro etilayotgan vaqt va makon, auditoriya tinglovchilari, jonli ijro, doston kuylanayotgan hudud va kuylovchining individual salohiyati kabilar ham muhim o'rin tutadi. Natijada dostonlar matnida umumxalq nutqiga xos til birliklaridan keng foydalanish, uni asar matniga singdira olish imkoniyati oshadi.

Ma'lumki, lug'aviy birliklar ishlatilish doirasi jihatidan avvalo ikkiga guruhlanadi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamni barcha o'zbek tili uchun umumiy bo'lgan lug'aviy birliklar tashkil qiladi. Bu qatlamdagi lug'aviy birliklar (yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, yoshi va boshqa belgilaridan qat'i nazar) o'zbekcha gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatiladi, o'zbek tilida gapiruvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday lug'aviy birliklar kundalik turmushda zarur narsa, belgi kabilarni nomlaydi, tuyg'ularni ifodalaydi...

Lug'aviy birliklarning ishlatilish doirasi jihatidan chegaralanishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra, chegaralangan qatlam, o'z navbatida, ikki guruhlanadi: ishlatilish territoriyasiga ko'ra

chegaralangan lug'aviy birliklar va ishlatilish kasb-koriga ko'ra chegaralangan lug'aviy birliklar.

Ishlatilish territoriyasiga ko'ra chegaralangan til hodisalari *dialektizm* deyiladi (yunoncha dialektos - "tilning mahalliy ko'rinishi").

Dialektizm umumtilga emas, shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlargagina xos hodisalardir; shunga ko'ra bular, odatda, biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektning vakillariga, shuningdek, adabiy tilga xos bo'lmaydi[5, 143-144].

"O'zbek tili leksikologiyasi" asarida: "Dialektal leksika ma'lum territoriyada yashaydigan hamma kishilar qo'llaydigan, o'sha territoriya aholi nutqiga xos bo'lgan so'zlardir. Bundan tashqari, dialektal leksika faqat og'zaki nutqqa xosdir. Bu jihatdan u oddiy so'zlashuv leksikasiga o'xshab ketadi. Lekin oddiy so'zlashuv leksikasining qo'llanilish doirasi territoriya jihatdan chegaralanmagan bo'lmaydi", - deya munosabat bildiriladi. Darhaqiqat, oddiy so'zlashuv leksikasi bilan dialektal leksika farqlanadi. Dialektal so'zlar adabiy til leksikasi hisoblanmaydi. Badiiy adabiyotda personajlar tilini individuallashtirish uchun va stilistik maqsadlarda qo'llanilgan dialektal so'zlarning hammasi ham adabiy tilga o'zlashib ketadi, deyish qiyin, albatta. Mualliflar fikrida davom etib... "bizning nazarimizda badiiy adabiyotda uchraydigan va muayyan sheva vakillari tomonidagina qo'llaniladigan so'zlar dialektal so'zlar deyiladi"[7, 17].

O'zbek tilshunosligida dialektizmlar va uning badiiy matndagi o'rni masalasida B.Fayzullayevning ishlari alohida ahamiyatga ega.[2, 33-38].

Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Qunduz bilan Yulduz" dostoni ham mazmun, ham hajm jihatidan uning yirik asarlaridan biri hisoblanadi[6, 203-458].

Asar matni leksikasi bilan tanishar ekansiz shoir tafakkuri, salohiyati nihoyatda keng ekanligiga yana bir bor qoyil qolasiz. Unda tilimiz taraqqiyoti lug'at tarkibining boy materiallari o'rin olganligiga guvoh bo'lasiz. Asar leksikasida ajdodlarimizning tabiat va jamiyatga munosabati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, hayot tarzi, asrlar silsilasi bilan voqea-hodisalarni ifodalovchi til birliklari katta o'rin tutadi. Masalan: ... **paxtaklar** g'urullab, **musichalar** uchib, **to'ti maynaga** qarab dam tortib, **tovusi** xurramlar quyrug'ini chotir qilib, charh urib turibdi. Bir xil suv chiqmagan toshloq, noobod erida **so'pito'rg'ay**, **g'azalay**, **puchchakalon**, **sarg'altoq pismaqush**, **cho'ponallovuch**, **zinqarcha**, **olahakka**, **zaxcha**, **qarg'a**, **olaqarg'a**, **sop** mayda qush yig'ilib, **laylakni** sozanda qilib qaqirlatib, Po'lkanday qilib aytdirib yotibdi [6, 222] yoki ...ana endi podsho qanday qilsin, ichidagi sirini kimga aytsin. Uydagi qizini, ko'rar ko'zini, so'zlar so'zini, aspatlab yurgan azizini, ko'p sohib tamizini, oti Qunduzini, barno, jodu ko'zini, manglayida bo'lgan bitta qizini «seniki emas, meniki; bersang ham olib ketaman, bermasang ham olib ketaman» deb o'tirsa, undan boshqa bolasi bo'lmasa. Suyanib yurgan yolg'iz bolasi, ko'zining oqu qorasi. Podsho o'lib qoldi, bo'lganicha bo'lib qoldi, ichi g'amga to'lib qoldi. Shunday ham bo'lsa qanday qilsin, ne chora, qarindosh-xeshini, teng-to'shini, tevarakdagi qo'ngishini, necha xesh-tabarini, Zangar diyorining jamiki amaldorini, necha bir **xizmatkorini** (qaysi birini aytayin) shu Zangar elining barini xabar qilib ayta berdi. Hamma el eshitib hay attang deyishib, nechovlar uyida yig'lashib; **dodxoh otaliqlar**, **tug'ushlar tug'begilar**, **tilla asoli hudaychilar**, **ulafaxo'r umarolar**, **fuzalolar**, shogirdi ko'p qancha **ulamolar**, **asabador**, **tug'dor**, **qozi**, **biy**, **muhrdor o'gachi**, **shig'ovul**, **mahram**, **yasovul** xotin-bola chaqasi bilan yig'ila berdi, podsholikning arkiga uyula berdi. Ko'pining

susqini qiyila berdi. Bir necha yosh ayollar, qizlar «esiz, Qunduzoydan ayrilib qoldik», deb qoshi-qabog'i uyula berdi [6, 369].

Birinchi matnida 20 ga yaqin qush nomlari berilgan bo'lsa, ikkinchi matnda ham qariyb shuncha mansab, amal amal kabi kasb-hunar leksikasi berilganki, shuning o'ziyoq Ergash Jumanbulbul o'g'lining nechog'lik so'z salohiyatining zargari, tilimiz ifoda imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq dostonlari leksikasining sezilarli qismi dialektizmlardan iborat. Agar xalq baxshilarining ko'pchiligi qipchoq dialekti vakillari ekanligini inobatga olsak, dostonlar matnida uchraydigan dialektal elementlarning ham asosiylari ana shu shevaga daxldor ekanligi ayon bo'ladi. Shu sababdan o'zbek xalq og'zaki ijodining yuksak namunalarida qipchoq dialekti va shevalariga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'ramiz.

«Qunduz bilan Yulduz» dostonining Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan kuylanganligi, baxshining je-lovchi sheva vakili ekanligi tabiiy ravishda bu doston matnidan anglashilib turadi. Asar matnida qo'llanilgan leksik birliklar doirasida dialektizmlar ham alohida o'rin tutadi.

O'zbek epik ijod namunalarida tilimizning dialektologiyasi, leksikologiyasiga oid juda ko'p qimmatli so'z va iboralar mavjud. Bu so'z va iboralarni, ayniqsa, o'zbek xalq ijodining gultoji hisoblangan dostonlarimiz tilini o'rganish nafaqat o'zbek tili, balki umumturkiy til uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan dostonlarimiz tili nafaqat folklorshunoslar uchun, balki tilshunoslarimiz uchun ham ulkan manba va tadqiqot obyekti bo'la oladi[4, 3-4].

Xususan, kuzatish obyektimiz bo'lgan Ergash shoirning "Qunduz bilan Yulduz" dostoni leksikasining ham dialektal tarkibi boy va rang-barangdir.

References:

1. Абдурахмонов Д. Дialektal лексикага экскурс // "Ўзбек тили ва адабиёти" журна. 1965, №1. –Б. 43.
2. Файзуллаев Б. Дialeктизмлар ва уларнинг бадий адабиётдаги ўрни \ "Ўзбек тили ва адабиёти" журна. 1977, №4. –Б. 33-38.;
3. Махмудов Н. "Повар" бовурчи эмас // Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент, 2012. – Б.77.
4. Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Elmis – Press-media» нашриёти, 2007. –Б. 3-4.
5. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1992. –Б. 143-144.
6. «Қундуз билан Юлдуз». Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари, беш томлик, 3-том. - Тошкент: Фан, 1972. -Б. 203 - 458.
7. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1981. – Б.17.